

**AN'ANAVIY IJROCHILIK TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-
MOHIYATI**

*Tursunxo'jayeva Mohinposhsha Nodirxo'ja qizi
Farg'onan Davlat Universiteti 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: O‘zbek mumtoz musiqasi o‘zining chuqur falsafiy mazmuni, murakkab tuzilishi va badiiy mukammalligi, shuningdek, betakror madaniy an’analarni o‘zida mujassam etgani bilan alohida ajralib turadi. Ushbu musiqiy an’ana o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosi va asrlar davomida shakllangan tarixiy qadriyatlariga tayanadi. Har bir asar o‘tmishning aks-sadosi sifatida namoyon bo‘lib, chuqur o‘rganilgan sayin o‘zining yangi ma’no qatlamlari va noyob xususiyatlarini ochib beradi. Mazkur maqolada ana shu jihatlar ilmiy va falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi hamda o‘zbek mumtoz musiqasining o‘ziga xosliklarini chuqur yoritishga harakat qilinadi.

Kalit so‘zlar: an’ana, o‘zbek milliy cholg‘ulari, dutor, an’anaviy ijrochi, akademik sozanda

Аннотация: Узбекская классическая музыка отличается глубокой философской содержательностью, сложной структурой и художественным совершенством, а также воплощением уникальных культурных традиций. Это музыкальное наследие опирается на богатое духовное прошлое узбекского народа и сформированные веками исторические ценности. Каждое произведение выступает как эхо прошлого, раскрывая всё новые смысловые слои и неповторимые особенности по мере углубленного изучения. В данной статье рассматриваются эти аспекты с научной и философской точек зрения, с целью более глубокого освещения самобытности узбекской классической музыки.

Ключевые слова: традиция, узбекские народные инструменты, дутор, традиционный исполнитель, академический музыкант.

Abstract: Uzbek classical music is distinguished by its profound philosophical depth, structural complexity, and artistic refinement, as well as its embodiment of unparalleled cultural traditions. Rooted in the historical legacy and rich spiritual heritage of the Uzbek people, this musical tradition reflects centuries-old values and collective memory. Each composition serves as an echo of the past, revealing new layers of meaning and unique characteristics upon deeper study. This article explores these dimensions through a scholarly and philosophical lens, offering an in-depth analysis of the intrinsic elements that define the uniqueness of Uzbek classical music.
Keywords: tradition, Uzbek national instruments, dutar, traditional performer, academic musician.

Kirish

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin jamiyat tarqqiyoti, ilm-fan, texnika, sport va madaniyat kabi sohalarda tub islohotlar o'tkazilib, juda keng ko'lamda xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, san'at va madaniyat yo'nalishlarini rivojlantirish, bu yo'nalishlar bo'yicha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ularning moddiy texnik bazasini mustahkamlash, yangi o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash borasida hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qarorlar, ko'rيلayotgan chora-tadbirlar, amalga oshirilgan ishlar fikrimizning dalilidir.

Tarixdan ma'lumki, musiqa ijrochilik san'ati qadim davrlardan buyon mavjud bo'lib, bizgacha uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan holda, o'zining hozirgi mukammal ko'rinishida yetib keldi. Buyuk ajdodlarimizdan Farobiy o'zining „Katta musiqa kitobi” da, Safiuddin Urmaviyning musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iyning „Jami al- alxon fi- ilm al-musiqiy” risolasida, Zaynulloobiddin Xusayniyning „Risolai dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy” risolasida, Amuliyning „Musiqiy risola” larida musiqa cholg'ularini o'rganish bilan birga, uni tadqiq etish masalalariga ham to'xtalib o'tganlar va o'z davrining musiqiy cholg'ulari haqida ma'lumot berishgan.

An'anaviy mumtoz musiqa deganda, millatga, ya'ni o'zbek xalqiga mansub, uning yetuk sozanda va bastakorlari tomonidan asarlar davomida yaratilgan musiqa san'ati namunalari ko'zda tutiladi. O'zbek an'anaviy musiqasi o'tmishtan ikki yo'nalish, ya'ni bir-biridan paydo bo'luvchi va bir-birini to'ldiruvchi, shu bilan birga o'zining alohida xususiyatlari va sifatlariga ega bo'lgan yo'nalishlardan tashkil topgan. Bular birinchisi, musiqa folklori bo'lsa, ikkinchisi ijodkorlarning musiqiy tafakkuri bilan to'ldirilgan mumtoz musiqa yo'nalishidir va har ikki yo'nalishning o'zgacha uslubi bor.

1.Og'zaki ijodkorlik mumtoz musiqa xalq tomonidan yaratilib, og'izdan og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan ijod mahsulidir.

2.An'anaviylik mumtoz musiqa na'munalari an'ana sifatida saqlanib, rivojlanib kelmoqda.

Og'zaki an'anadagi professional musiqa deganda murakkab holatda rivojlangan qo'shiq va ashulalar va maqomlarni inobatga olamiz. An'ana deganda uzoq vaqt davomida xalq tajribasidan o'tib, odat tusiga kirgan tadbir yoki xususiyat tushuniladi. An'ana o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'rnini topgan, avloddan avlodga o'tadigan, takrorlanadigan hamda hayotning barcha sohalarida qabul qilingan tartib va qoidalar silsilasidir. U kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakatdir, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq- atvor qoidalari va ko'nikmalar, urf- odat va marosimlar yig'indisidan iboratdir.[1]

Har bir xalq o'z milliy merosi va an'analarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning milliy ma'naviyatiga xos yaratilgan cholg'u asboblariga egadir. O'zbek musiqiy cholg'ular olami xususida ma'naviy va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang- barang ekanligini e'tirof etib o'tish lozimdir, qolaversa, qaysiki xalqning ma'naviyati buyuk bo'lsa, uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir.[2] O'zbek milliy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning har biri uzoq o'tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.[3] Ana shunday cholg'ulardan biri- dutordir.

Dutor- an'anaviy chertim cholg'u sozlaridan biri. Uzoq o'tmishdan xalq ijrochilik amaliyotidan munosib o'rin egallab kelayotgan dutor cholg'usi, ayni paytga kelib an'anaviy ijro uslubiga xos barcha guruhlar tarkibidan joy olgan hamda an'anaviy yakkanavoz cholg'u sifatida shakllangan. Dutorni o'z nomini va uning barcha imkoniyatlari bilan ilk bor XV asrda yashab ijod etgan musiqashunos olim Zaynulloiddin al-Xusayniy o'zining musiqa ilmiga bag'ishlangan „Musiqa ilmi va amaliy qoidalari” nomli risolasida bayon etgan.[4] Bundan ko'rinish turibdiki, xalqimiz an'anaviy ijrochilikka, jumladan dutor chalishga o'rgatish va o'rganish qadim-qadimdan odatlanib, ustoz-shogird tizimida shakllanib kelmoqda. Ustoz -shogird an'anaviy ijrochiligida ustozning o'zi ham sozandalik, ham xonandalik san'atini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

An'anaviy ijrochilikda dutorning turli o'ziga xos uslublari bo'lган. O'tgan asrda dutorchilarining ijrochilik mahoratidan kelib chiqib, sozandalarni „dekachi”, „ipakchi”, „dastachi” deb atashgan. An'anaviy ijrochilikda bu atamalar dutor cholg'sining aynan qaysidir tomondan yetuk bo'lgandagina qo'llaniladi. Ya'ni „ipakchi” melizm va qochirimlarda yetarlicha foydalanishi, „dekachi” esa dutor ipak torlar ustida mohirona ijro uslubiga ega bo'lishi, „dastachi” chap qo'l barmoqlaridan cholg'usining kosa tomonlariga chertib ijro etishidir.

Natijalar va muhokama:

O'tgan asrda bir necha musiqiy cholg'ular takomillashtirildi va bu takomillashtirilgan sozlar ichida dutor oilalarga ajratildi hamda dutor sozida jahon musiqasi namunalarini ijro etish ommalashib bordi. Avvalgi diatonik dutor cholg'usi o'rniga xromatik ikki yarim oktavaga ega bo'lган dutor yaratildi. Dutor al't, dutor prima, dutor tenor, dutor sekunda, dutor bas, dutor kontrabas kabi cholg'ular dutorlar oilasini tashkil qildi va xalq cholg'ulari orkestri va ansambllarida ijro etish rivojlandi. Dutor sekunda qardosh millatlarimiz (qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq) kuylarini ijro etishda qo'llaniladi, dutor tenor bu an'anaviy ijrochilikdagi diatonik dutor hisoblanib, oltin merosimiz bo'lган shashmaqomni ijro etishda qo'llaniladi.[5]

An'anaviy ijrochi bilan „akademik” sozandani taqqoslaydigan bo'lsak, quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

Akademik ijro tizimi sozandani faqat nota bilan cheklanishiga olib keladi. Lekin akademik ijrochilikda mukammallik va aniqlik ustunlik qiladi. Akademik ijrochilik kirib kelgandan so'ng o'zbek sozandalari o'zlarini mahoratlarini jahonga namoyish eta olish imkoniga ega bo'ldilar va jahon klassik musiqa durdonalaridan namunalar o'zbek xalq cholg'ularida ijro etila boshlandi.

An'anaviy sozanda ijro etayotgan asarini ongli ravishda badixago'ylik asosida erkin ijro etadi. An'anaviy ijrochilikda ya'ni tenor dutorida faqat milliy kuylar va nodir asarlarimizdan bo'lган „Shashmaqom”dan namunalar ijro etiladi. Aynan bu dutordagi diatonik pardalar qochirim va bezaklarni chalishda qo'l keladi. Akademik sozanda bilan an'anaviy yo'da ijro qiluvchi sozandalar o'rtasida katta tafovut paydo bo'lmoqda. Lekin ikki yo'l ham o'z holicha bir-biridan ustun turadi. Keyinchalik „akademik” sozandalar, qadimiy an'analardan ajralganligi va „milliy intonatsiya tili” ga tayyorgarligi yo'qligi uchun ham hozirgi vaqtga kelib ikki yo'lga ajraldi: akademik ijrochilik va ana'anaviy ijrochilik.

O'zbekistonning barcha san'at oliygohlarida shu ikki yo'naliш bo'yicha tahsil olib borilmoqda. An'anaviy ijrochilik bo'limida ustoz-shogird an'anasiga tayangan tahsil olinib, milliy maqom san'atimiz namunalari chuqur o'zlashtiriladi. Akademik ijrochilik bo'limida esa nota namunalari asosida kompozitor hamda bastakorlar ijodidan foydalilanildi.

An'anaviy ijrochilik madaniyati vakillari asosan diatonik tovushqatorga ega bo'lган cholg'ularda ijro etishgan. Cholg'ularni takomillashtirish natijasida esa diatonik tovushqatorlar orasiga xos pardalar joylashtirilib akademik ijrochilikka yo'l ochildi. Bu esa jahon klassik namunalarini ham ijro etish imkonini yaratadi. Masalan: g'ijjak sozida V. Montining „Chardash”, N.Paganinining „Komponella” kuylarini, dutorda esa balalaykaga mo'ljallangan asarlarni ijro etish imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa o'rниda shuni aytish joizki, har bir o'zbek xonadoniga milliy cholg'u asbobi, milliy kuy va qo'shiq kirib borsagina, san'at tirikchilik vositasi emas,balki insoniy mohiyat va iste'dodni namoyon etish bo'lsagina, yurakdan qo'shiq aytish yoki raqsga tushish uyat hisoblanmaydigan madaniy- axloqiy muhit vujudga kelsagina o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atining yutuqlari va porloq istiqbollari haqida fikr yuritish, u bilan faxrlanish huquqiga ega bo'lamiz.

1. O`zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori. O`qituvchi nashriyoti matbaa ijodiy uyi. -Toshkent.: 2007.- B.8
2. Abdullayeva O. Ansambl cholg'ularini o'rganish. -T.: 2006.- B.32
3. Toshmatov I. An'anaviy dutor. -T.: -2008.- B.9
4. O`zbek milliy ensiklopediyasi. -T.: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom -B.390

5. Rasultojiyev J. Dutor ijrochiligi. -T.: O`qituvchi nashriyoti. -B.36

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olıyanob xalqımız bilan birga quramiz. -Toshkent.: O`zbekiston. 2017. -B. 488
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo`ladi. 3-tom. -Toshkent.: O`zbekiston. 2019. -B.400
3. Karamatov F. O`zbek xalqi musiqa merosi. -T.: 1978y.
4. Toshmuhammedov M. G`ijjak navolari. -T.: 1988y.
5. Toshpo`latov I. An`anaviy dutor ijrochiligi (o`quv qo`llanma). -T.: 2004y.
6. Mahmud Qoshg`ariy. Devonu lug`ati-t-turk (Turkiy so`zlar devoni).- T.: G`ofur G`ulom nomidagi nashriyot- manbaa uyi. 2017 y.